

OQ OSTONA BOBO QADAMJOSI - ZIYORAT TURIZMI OB'YEKTI SIFATIDA

Nuralibek Bozarov Saidmurod o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Surxon vohasida joylashgan taxminan X-XI asrlarga oid bo'lgan Oq Ostona bobo ziyoratgohi haqida to'xtalib o'tilgan bo'lib, uning kelib chiqish tarixi, hozirgi kundagi holati to'g'risida ma'lumotlar berib o'tilgan. Bundan tashqari, qadamjoning ziyorat turizmida hususan musulmon olamida tutgan o'rni haqida atroflicha to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Ziyoratgoh, turizm, xonaqoh, Abu Hurayra, gumbaz.*

Annotation: *This article focuses on the shrine of Ak Astana bobo, located in the Surkhan oasis, dating back to the 10th-11th centuries, and provides information about its history and current status. In addition, the role of Kadamjo in pilgrimage tourism, especially in the Muslim world, was discussed in detail.*

Key words: *Pilgrimage, tourism, house, Abu Huraira, dome.*

Аннотация: *В данной статье основное внимание уделяется святыне Ак Астана бобо, расположенной в Сурханском оазисе, датируемой X-XI веками, а также приводятся сведения о ее истории и современном состоянии. Кроме того, подробно обсуждалась роль Кадамджо в паломническом туризме, особенно в мусульманском мире.*

Ключевые слова: *Паломничество, туризм, дом, Абу Хурайра, купол.*

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunda ziyorat turizmi turizm sohasining eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. O'zbekiston dunyo miqyosida muqaddas qadamjolarga boy mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida islom ilmlari rivojida beqiyos o'rin tutgan buyuk mutafakkirlar xoki abadiy qo'nim topgan manzillarni o'rganish, ularni obodonlashtirish ishlari olib borildi. Ushbu manzillar ziyorat qiladigan maskanlarga aylantirildi. Bunday qadamjolar nafaqat O'zbekiston aholisi, balki butun islom olami uchun muqaddas hisoblanadi. Hozirgi kunda Surxondaryo viloyatida 561 ta moddiy-madaniy meros obyekti mavjud. Bular orasida ziyorat qilinishi mumkin bo'lgan muqaddas joylar ko'pchilikni tashkil etadi. Mazkur omillar so'nggi yillar davomida O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish, uni jahon miqyosiga olib chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

2017 yilda O'zbekistonda sayyohlikning alohida sohasi bo'lgan ziyorat turizmini rivojlantirish va jahonga tanishtirish bo'yicha tizimli ishlar boshlab yuborildi. Jumladan, 2017 yil 16 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori e'lon

qilindi.¹³⁵ Bu hujjat bilan O'zbekistonga sayohat qilishni yengillashtirish, turizm infratuzilmalarini rivojlantirish va yangi turistik obyektlarni tashkil etishga qaratilgan 2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Bundan tashqari, mazkur qaror asosida bir oy muddat ichida fuqarolariga 2018 yilning 1 yanvaridan viza tartibini soddalashtirish taklif etilayotgan mamlakatlar hamda fuqarolariga maxsus ziyorat turizmi dasturlari taklif etiladigan davlatlar ro'yxatini shakllantirish, shuningdek, Malayziya, Indoneziya va boshqa mamlakatlardan O'zbekistondagi muqaddas qadamjolariga ziyorat turizmi yo'nalishida sayyohlar jalb qilish bo'yicha ishlarni faollashtirish, bu borada kerakli reklama tadbirlarini o'tkazish, logistika, jumladan, charter reyslarini tashkil etish va boshqa vazifalar belgilandi.¹³⁶

Ammo, shunga qaramasdan bu borada o'z yechimini kutayotgan masalalar mavjud bo'lib, ularning tahlili bu borada ayrim taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berishi mumkin. Shu sababdan sohada amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalarini ilmiy tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

Oq Ostona bobo ziyoratgohi. Surxon vohasi ko'plab aziz avliyolar, mo'tabar zotlar yashab o'tgan makondir. Shunday aziz avliyolardan biri hisoblangan Oq Ostona bobo ziyoratgohi ham shular jumlasidandir. Mazkur ziyoratgoh musulmon olamida mashhur hisoblanadi. Surxon daryosining chap qirg'og'ida Serharakat mahallasidagi Oq Ostona bobo qishlog'ida mashhur sahoba, roviy, faqihlardan biri bo'lgan Abu Hurayra nomi bilan bog'liq Oq Ostona bobo ziyoratgohi (X-XI asrlar) joylashgan. Abu Hurayra kulti tarqalishi sabablari hozirgacha yaxshi o'rganilgan emas.

Har holda u hadis ilmining Markaziy Osiyoda VIII-IX asrlarda rivojlanishi va muvaffaqiyat qozonishi bilan bog'liqdir. Abu Hurayra (r.a.) milodiy 603 yilda Qizil dengiz yaqinidagi Tihomaning Banu Davs qabilasida tavallud topgan. Asl ismi ibn Abdurahmon ibn Sahr Davsiy bo'lib, Abu Hurayra so'zi arab tilida "mushukcha egasi" ma'nosini anglatadi. Hadislarda bayon etilishicha, uning mushukchasi bo'lgan, bir kuni mushukni tizasida o'ynatayotganini ko'rgan Payg'ambarimiz uni "Abu Hurayra", deb chaqirganlar. Shundan keyin bu nom o'z ismidan ham mashhur bo'lib ketgan. Abu Hurayra (r.a.) islomni qabiladoshi Tufayl ibn Amir Davsiy (r.a.) da'vati natijasida qabul qildi. Hijratning oltinchi yiligacha o'zining Davs qabilasida bo'ldi. Keyin qavmidagi musulmonlar jamoasi bilan Madinaga keldi. Rasullohga yaqinroq bo'lish maqsadida "ahli suffa" qatoridan joy oldi. Rasulloh (s.a.v.) Abu Hurayra (r.a.)ga butun musulmon ummatiga tatiydigan juda ko'p hikmatli so'zlarni aytganlari mashhur. Abu Hurayra (r.a.) Abu Bakr (r.a.) xalifalik davrida dindan qaytgan – murtadlar bilan bo'lgan janglarda ishtirok etgan. Xalifa Umar (r.a.) davrida Abu Hurayra (r.a.) Baxrayn voliyi, Usmon (r.a.) davrida Makka qozisi vazifalarida faoliyat olib borgan. Muoviya ibn Abu Sufyon (r.a.) davrida esa, Madina shahriga voliy etib

¹³⁵ <https://lex.uz/docs/3311817> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"

¹³⁶ <https://www.gazeta.uz/uz/2017/08/17/turizm/> O'zbekistonda ziyorat turizmi rivojlantiriladi

tayinlangan. Abu Hurayra (r.a.) Payg'ambar (a.s.) dan eng ko'p ko'p hadis rivoyat qilgan sahobiy bo'lib, rivoyat qilgan hadislar soni 5374 tani tashkil qiladi. Buni boshqa sahobiyalar ham e'tirof etgan. Abu Hurayra (r.a.) 59/679 yil 78 yoshida Madinada vafot etgan va Baqi' qabristonida dafn qilingan. Oq Ostona bobo (Abu Hurayra) maqbarasi X-XI asrlarda barpo etilgan. Bu bino kvadrat shaklda: tashqaridan 9x8,7 metr va ichkaridan 3,65x5,80 metrni tashkil etib, tuzilishidan kubga o'xshash bo'lib, o'qsimon gumbaz bilan sayqallangan. XV asrdagi ta'mirlash ishlarida janubi-sharqiy devor qayta ta'mirlanib, qolgan uch tarafi xom g'isht bilan terilgan, uning uch burchagidan (sharqiydan tashqari) minorachalar chiqarilib, gumbaz osti qismlari qayta tiklangan.¹³⁷

Dastlabki kirish qismi shimoli-sharqiy tomonda joylashib, bu yerda minora bo'lgan. Keyinchalik kirish joyi janubi-sharqiy tomondan ochilib, sag'anali bino minorasi panjara orqali yoritilgan. Yorug'lik o'tuvchi deraza janubi-g'arbiy qismdan ochilgan. Binoning old tomoni shakldor naqsh bilan bezatilgan, keng vertikal juft g'ishtlardan ham bezak berilgan. Imorat kvadrat pishiq 23-24x3,5 sm, 26x4,5; 22,5x4 sm hajmli g'isht va 10x10x66 sm loy qorishmasidan terilib, gumbazning birinchi aylanasi va pastki qismi devorlari maxsus katta hajmdagi 45-50 sm g'isht bilan bunyod etilgan. Arxitektura yodgorligidagi o'ziga xoslik maqbaraning paydo bo'lish davrini aniqlashga yordam beradi. Pishiq g'isht bilan ishlangan yodgorliklar Markaziy Osiyoning X-XI asr oxirlaridagi qurilish uslubiga xosdir. Maqbara ichida yirik hajmdagi ganch bilan suvalgan sag'ana bo'lib, u kechroq barpo bo'lgan. 2001-2002 yillarda olib borilgan arxeologik qazishmalar chog'ida maqbara ichida bir necha qabrlarni aniqlandi. Qazishlar davomida maqbaraning old tomonidagi devor yaqinida yettita qabr borligi tasdiqlandi. Maqbara X-XI asrlarga tegishli deb belgilangan. Kiraverishdagi o'ng burchagida bir juft murakkab shakl bo'lib, ularni yetti burchakli yulduz shaklida bajarilgan va shartli ravishda o'ng - "erkaklarga tegishli" va chap - "ayollarga tegishli" belgilariga ajratilgan.



1-rasm



2-rasm

¹³⁷ Arshavskaya 3. A., Rtveladze E. V., Haqimov 3. A., Srednevekovie pamyatniki Surxandari, T., 1982.

Chap tarafdagi belgi dunyodagi hayot (qalb) borligini va rivojlanishining umumiy andazasini aks etadi. Bu belgi mikrokosmadir (Inson qalbi). Hayot rivojlanishi ichki kosmik kuchga ega. Hayot fazoda markazdan aylana bo'ylab tarqaladi: tashqi aylana hayot shakliga ko'ra ichkisiga nisbatan soddaroq. Hayotning o'zaro mutanosibligi har bir oddiy "kurtak" "hayot qolipida" o'z o'rniga egaligini ifodalaydi. Hayot rivojlanishi cheksiz — belgi ajralgan. Ehtimol, chap belgi "ayollarga tegishli" bo'lib, u ijod va hayot kashf etuvchi belgidir. Shubhasiz, o'lim emas, hayot belgisi. Suratdagi yangi hayot "kurtagi" olov belgisi ortida tasvirlangan bo'lsa, chap tarafdagi belgi Uyg'onish belgisi bo'lishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, turizmning mazkur sohasiga davlat darajasida e'tibor berilayotganligi sir emas. Hozirgi kunda tez ommalashib borayotgan turizm sohasi hisoblangan ziyorat turizmini rivojlantirish mazkur sohada yuqori salohiyatga ega davlatlar uchun qulay imkoniyatdir. Bundan tashqari, Oq Ostona ziyoratgohiga xorijiy sayyohlarni jalb qila oladigan infratuzilmani yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror rivojlanishni amalga oshirish uchun ham hukumat, ham mahalliy idoralar tomonidan muvofiqlashtirilishi kerak. Hozirgi kunga kelib qadamjo va uning atrofi qayta ta'mirlanib, obod etilgan. Ziyoratgoh odatda haftaning chorshanba kunlari ziyoratchilar bilan gavjum bo'ladi. Shu kuni vohamiz va qo'shni viloyatlardan o'rtacha 500 dan ortiq yurtdoshlarimiz kelib, ziyorat qiladi. Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlardan ham sayyohlar tashrif buyurishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Arapov A.V., Bulatov M.S., Tuychieva I.G., "Oq Ostona bobo maqbarasidagi ramzining unutilgan "tılı", // Moziydan sado, Tashkent, 2002, № 2 (14.)
2. Arshavskaya 3. A., Rtveladze E. V., Haqimov 3. A., Srednevekovie pamyatniki Surxandari, T., 1982.
3. <https://lex.uz/docs/3311817> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"
4. <https://www.gazeta.uz/uz/2017/08/17/turizm/O'zbekistonda> ziyorat turizmi rivojlantiriladi
5. Nuralibek Bozarov (2022). ZIYORAT TURIZMI TARIXI VA UNING TURIZM SOHASIDA TUTGAN O'RNI. Academic research in educational sciences, 3 (12), 540-546.